TA'LIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
Esanova Shohida	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1468
Хамзина Динара Рашатовна	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH	1482
Masharipova Sevara Bekturdi qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATION USULLARI	1487
Marimova Indira Rasul qizi	
DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODEL.....	1492
Murodov Orif Jumayevich	
TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIY TAJRIBASI	1497
Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ	1502
Киличева Ф.Б.	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI BAHOLASH	1507
Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Quدراتov Islom Ismat o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
Маденова Эльмира Нзаматдиновна	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
Мансуров Обид Зайнидинович	
РЕКЛАМА XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI	1534
To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li	
THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION	1545
Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna	
MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1549
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
IKTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI	1554
Xashimova Salima Nigmatullayevna	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1558
B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich	
BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL	1563
Kurbanova Mohinur Xabib qizi	
KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH OMILLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	1568
Mustafakulova Nodira Primovna	
BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNI OPTIMAL TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI	1572
Qodirov Baxodir Qudratovich	
SUT VA SUT MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI	1577
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	1581
Шарахметов Шерзад Шаазимович	
O'ZBEKISTON "YASHIL" IQTISODIYOT SARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH METODLARI.....	1588
Qodirov Baxodir Tursunovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI.....	1592
Feruz Mirzoyeva Salimovna	
YASHIL O'SISH, YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: ATAMAVIY VA O'ZARO BOG'LIQLIK MASALASI.....	1597
Djalilov Sardor Sadilloevich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMAD VA XARAJATLARNI DEKLARASIYALASHNING TUTGAN O'RNI	1601
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
DIGITAL ECONOMY AND GREEN TECHNOLOGIES: INNOVATIONS ON THE ROAD TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT	1606
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin kizi	
FARG'ONA VODIYSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI VA ULARNI BAHOLASH	1609
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK.....	1616
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi, Yuldashev Abduhakim Abdurkarimovich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1620
Mardiyev Akrom Djumaboyevich	
BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA MUASSASALARINI NATIJADORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	1627
S.J. Sultanov	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORAT VA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1633
Ulashbayev Shohruh Abdivaxobovich	
BIOMASSA ASOSIDA OZUQA ISHLAB CHIQARISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKGA ERISHISHNING AYRIM JIHATLARI	1639
Xazratkulov Niyoz Namazbayevich	
STRATEGIC MANAGEMENT AND DEVELOPMENT OF CORPORATE TALENTS	1644
Shoyunusova Arofat, Sanjar Mirzaliev	
AGROTIZIMDA ANOR YETISHTIRISHNING O'RNI VA IQTISODIY AHAMIYATI	1648
Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATINI HOZIRGI KUNDAGI TAHLILI	1652
Mahmudova Chinora Anvar qizi	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA IMTIYOZLAR VA KAFOLATLAR TIZIMINING AHAMIYATI	1657
Nizamov Xusniddin Fazliddinovich	



SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	1663
Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li	
MINTAQAVIY RIVOJLANISH SHAROITIDA SHAHARLAR AGLOMERATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHLTLARI.....	1670
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR.....	1674
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И МЕТОДЫ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКЦИОНЕРНЫХ КОМПАНИЙ.....	1678
Бекбаева Феруза Бахтиеровна	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA BUDJET BILAN HISOB-KITOBBLAR AUDITINI TASHKIL QILISHNING AMALIY JIHLTLARI.....	1684
Rashidov Zuhridin Sanjar o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1690
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАКТИКИ УПРАВЛЕНИЯ ВАЛЮТНЫМИ РИСКАМИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	1695
Тугалов Бобур Қаршибой угли	
DYUZDO SPORTIDA JAROHATLAR PROFILAKTIKASI VA TIBBIY TIKLANISH USULLARINING SAMARADORLIGI.....	1699
Tangriyev Abdullo Tovashovich	
HAVO TRANSPORTI ORQALI YUK TASHUVCHI TADBIRKORLIK SHAKLLARI VA UNDAGI MUOMMOLAR	1703
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	
HUDUDIY IQTISODIYOTDA INNOVATSION SIYOSAT MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING TIZIMLI MODELI	1709
G'aniyev Sanjar Poziljon o'g'li	
СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ УЧЕТА ЗАТРАТ И АУДИТА В УЗБЕКИСТАНЕ: НАЦИОНАЛЬНАЯ БАЗА И МСА.....	1716
Юлчиев Ойбек Улуғбек ўғли	
TIJORAT BANKLARIDA YANGI BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHDA XORIJIY TAJRIBALARNI INTEGRATSIYALASH YO'LLARI	1723
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH DAVRIDA KICHIK BIZNES IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	1731
Isroilov Dilshodbek Rustamovich, Isroilova Odina Rustambek qizi	
O'RMON XO'JALIGINI MOLİYALASHTIRISHDA MOLİYAVIY RESURLAR VA MANBALAR.....	1737
Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna	
ZAMONAVIY JAHON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQAT XAVFSIZLIGI, ISROFI VA YO'QOTISHLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI.....	1743
Nazarova Gulbahor Raxmonkulovna	
KORXONA FOYDASI VA UNING RAQOBATBARDOSH NARX SIYOSATINI MAKSIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	1748
Axmadjonov Murodjon Axadjon o'g'li	
DEVELOPMENT PRIORITIES FOR THE FRUIT AND VEGETABLE SECTOR IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S FOOD SECURITY POLICY	1754
Nazarova Munavvar Soatmurod qizi	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA HR MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1761
Xamroyeva Kumush Alisherovna	
QURILISH SANOATIDA BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI.....	1768
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
TURISTIK DESTINATSIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	1772
Bekberganov Izzat Hurmat o'g'li	
TRANSPORT XIZMATLARI BOZORI TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI	1775
Jo'rayeva Shahzoda Farhod qizi	
O'ZBEKISTONDA QURILISH MAXSULOTLARI ISHLAB CHIQRADIGAN KORXONALARNING RAQOBATBARDOSHLIGI TAHLILI	1781
Yusufova Laylo G'ayrat qizi	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK MAHSULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH TENDENSIYALARI.....	1788
Xujamuratov Abbos Mardonovich	
PR-BO'LIMI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING TARKIBIY-FUNKTSIONAL YONDASHUVLARI.....	1792
Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna	
TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS TENDENSIYALARI	1797
Xujakulova Odina Valijonovna	
DAVLATNING IQTISODIY MUVOZANAT VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI ROLI.....	1805
Uzoqov Bekzod Bozor o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MAHALLIY MODA BRENDINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	1810
Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna	
DEVELOPMENT OF TOURISM INFRASTRUCTURE IN UZBEKISTAN	1817
Sadonova Maqsuda Azamjonovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI	1824
Raxmonov Bekzod Sharibjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1832
Djurayev Laziz Tursunboyevich	
TA'LIM TASHKILOTLARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETINGNING ROLI	1836
Raximov Faxriddin Shavkatovich, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
TURIZM INDUSTRIYASI VA TURIZM INFRATUZILMASINING MOHIYATI HAMDA TARKIBIY QISMLARI	1844
Mo'minova Mavjuda Sharifovna	
МОДЕРНИЗАЦИЯ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1849
Бозорова Озода Рахимовна	
EKSPORT FAOLIYATINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	1854
To'rayeva Yulduz Shamsiddin qizi	
ZAMONAVIY ISH JOYLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLARNING ROLI	1859
Tulyaganova Aziza	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIGA INVESTISIYALARNI YO'NALTIRISHDA QULAY INVESTISION MUHITDAN OQILONA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1864
Xikmatov Xayrullaxon Maxmurxonovich, Bo'riyev Lochinbek Ortiqbopoyevich	
O'ZBEKISTONDAGI KLASSTERLARNING FAOLIYATI TO'G'RSIDA	1870
Azimova Feruza Payziyevna, Yuldashev Samad Normo'minovich	
ФИНАНСОВОЕ ОЗДОРОВЛЕНИЕ КАК СТРАТЕГИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КОМПАНИИ	1875
Алиева Сусанна	
PUL-KREDIT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	1881
A.A. Ismailov	
ALOQA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA INNOVATSION XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	1887
Shirinova G.X.	
XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISH VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1893
Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA RIVOJLANISHI: 2017-2025-YILLAR DINAMIKASI TAHLILI	1900
Sarsenbayev Baxitjan Abdulgazievich, Allamberganova Nargiza Kuanishbayevna, Turg'anbayeva Ramiza Tolibayevna	



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA RIVOJLANISHI: 2017–2025-YILLAR DINAMIKASI TAHLILI

Sarsenbayev Baxitjan Abdulgazievich

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti,
“Moliyaviy texnologiyalar” kafedrası dotsenti, PhD.

ORCID: 0000-0002-6884-2285

E-mail: bsarsenbaev83@gmail.com

Allamberganova Nargiza Kuanishbayevna

Mustaqil izlanuvchi

ORCID: 0009-0006-9257-0204

E-mail: nallamberganova88@mail.ru

Turg‘anbayeva Ramiza Tolibayevna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti,
“Moliya” mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBYu) rivojlanishining 2017–2025-yillardagi dinamikasi tahlil qilingan. Tadqiqotda kichik biznes subyektlarining sanoat, qurilish, bandlik hamda tashqi savdo (eksport–import) sohalaridagi o‘rni rasmiy statistik ma‘lumotlar asosida o‘rganilgan. Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va maqsadlari yoritilgan; adabiyotlar sharhi bo‘limida kichik biznesning iqtisodiyotdagi roli bo‘yicha xalqaro va mahalliy ilmiy yondashuvlar tahlil qilingan; metodologiya bo‘limida esa statistik tahlil usullari bayon etilgan. Tahlil va natijalar qismida 2017–2023-yillar davomida KBYu subyektlari faoliyatining barcha asosiy ko‘rsatkichlarida barqaror o‘shir kuzatilgani aniqlangan. Xususan, sanoat va qurilish hajmlari bir necha barobarga kengaygan, bandlik darajasi barqaror saqlangan, tashqi savdodagi o‘zgarishlar esa bosqichma-bosqich ijobiy yo‘nalishda kechgan. Kichik biznesning yalpi hududiy mahsulot (YaHM) va iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi sezilarli oshib, 2024-yilga kelib YaHMning qariyb 66 foizini tashkil etgan. Xulosa va tavsiyalar bo‘limida olingan natijalar asosida hududda kichik tadbirkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha strategik takliflar ishlab chiqilgan. Maqola siyosiy-tahliliy, statistik va amaliy-tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lib, iqtisodiy kategoriyalar ilmiy uslubda qo‘llangan.

Kaliit so‘zlar: kichik biznes; xususiy tadbirkorlik; iqtisodiy dinamika; sanoat; qurilish; bandlik; tashqi savdo; statistik tahlil.

Abstract. This article analyses the dynamics of the development of small business and private entrepreneurship (SBPE) in the Republic of Karakalpakstan over the period 2017–2025. The study examines, on the basis of official statistical data, the role of small business entities in industry, construction, employment, and foreign trade (exports–imports). The introduction outlines the relevance and objectives of the study; the literature review summarizes international and domestic scholarly approaches to the role of small business in the economy; and the methodology section describes the statistical analysis methods applied. The analysis and results section reveals that between 2017 and 2023, all key performance indicators of SBPE showed steady growth. Industrial and construction volumes expanded severalfold, employment remained stable, and foreign trade indicators improved progressively. The share of small business in gross regional product (GRP) and across economic sectors increased significantly, reaching approximately 66 percent of GRP by 2024. The conclusion and recommendations section presents strategic proposals aimed at further strengthening small business development in the region. The article is political–analytical, statistical, and practical–recommendatory in nature, employing economic categories in a scholarly and evidence-based manner.

Key words: small business; private entrepreneurship; economic dynamics; industry; construction; employment; foreign trade; statistical analysis.



Аннотация. В статье проанализирована динамика развития малого бизнеса и частного предпринимательства (МБЧП) в Республике Каракалпакстан за период 2017–2025 годов. На основе официальных статистических данных исследована роль субъектов малого бизнеса в промышленности, строительстве, занятости, а также во внешней торговле (экспорт–импорт). Во введении раскрыты актуальность темы и цели исследования; в обзоре литературы рассмотрены международные и отечественные научные подходы к роли малого бизнеса в экономике; в разделе «Методология» изложены применённые методы статистического анализа. В разделе «Анализ и результаты» показано, что в 2017–2023 годах по всем ключевым показателям МБЧП наблюдался устойчивый рост: объёмы промышленности и строительства увеличились в несколько раз, уровень занятости оставался стабильным, а показатели внешней торговли демонстрировали положительную динамику. Доля малого бизнеса в валовом региональном продукте (ВРП) и по отраслям экономики существенно возросла, достигнув к 2024 году около 66 процентов ВРП. В разделе «Выводы и рекомендации» на основе полученных результатов предложены стратегические меры по дальнейшему развитию малого предпринимательства в регионе. Статья носит политико-аналитический, статистический и практико-ориентированный характер, с научным использованием экономических категорий.

Ключевые слова: малый бизнес; частное предпринимательство; экономическая динамика; промышленность; строительство; занятость; внешняя торговля; статистический анализ.

KIRISH

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, mamlakatlarning iqtisodiy o'sishi hamda bandlik darajasini oshirishda beqiyos rol o'ynaydi. Xalqaro ma'lumotlarga ko'ra, dunyo miqyosida kichik va o'rta korxonalar (KO'K) barcha korxonalarning qariyb 90 foizini tashkil etadi va global bandlikning yarmidan ortig'iga ularning hissasi to'g'ri keladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa yalpi ichki mahsulotning (YalM) 40 foizdan ziyod qismi KO'Klar tomonidan yaratiladi [1].

O'zbekiston misolida ham kichik tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning "lokomotivi" sifatida shakllanib, so'nggi yillarda uning iqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi izchil ortib bormoqda. Jumladan, 2024-yilda respublika miqyosida kichik biznes subyektlari YalMning 54,3 foizini, eksportning 33,3 foizini hamda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning 32,4 foizini ta'minlagan. Kichik tadbirkorlik milliy darajada bandlikning asosiy qismini yaratib, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda [2].

Mamlakatda 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar kichik tadbirkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Xususan, 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, soliq yukini kamaytirish va kredit resurslariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar belgilab berilgan. Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda moliyaviy infratuzilmani takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qayd etilgan.

Mazkur siyosiy va iqtisodiy yangilanishlar, ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik biznesning rivojlanish sur'atlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston YalMining qariyb 3 foizini tashkil etgan bo'lsa-da [3], hudud iqtisodiyoti tarkibida kichik tadbirkorlik iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning makroiqtisodiy ahamiyatini yoritishda iqtisodiy adabiyotlarda bir nechta nazariy yondashuvlar mavjud. Klassik yondashuv tadbirkorlikni bozor iqtisodiyotining tabiiy va ajralmas elementi sifatida talqin etib, erkin iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlaydi. Innovatsion yondashuv, J. Shumpeter asarlarida keng tahlil qilinganidek, kichik biznesni innovatsiyalar manbai va iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholaydi. Institutsional yondashuvga ko'ra, kichik tadbirkorlik jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ishsizlikni kamaytirish va o'rta sinfni shakllantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy xalqaro tashkilotlar – Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) va boshqa muassasalar – kichik biznesni barqaror iqtisodiy o'sishning muhim drayveri sifatida e'tirof etadi [4]. Ularning tahlillarida kichik biznesning o'sish, bandlik va investitsion faollikdagi roli global miqyosda alohida ta'kidlanadi.

Empirik tadqiqotlar ham kichik biznesning makroiqtisodiy barqarorlikdagi o'rnini ko'plab jihatlar orqali isbotlaydi. Kichik tadbirkorlik YalM o'sishini rag'batlantiradi, iqtisodiy inqiroz sharoitlarida esa tez moslashuvchanlikni namoyon etadi. Ijtimoiy barqarorlik nuqtai nazaridan, kichik biznes keng ko'lamli ish



o'rinlarini yaratib, aholining daromad manbalarini diversifikatsiya qiladi. Moliya barqarorligi nuqtai nazaridan, kichik korxonalar davlat byudjeti daromadlarining muhim qismini shakllantiradi va soliq bazasining barqarorligini ta'minlaydi. Hududiy barqarorlik jihatidan esa, kichik biznes joylarda iqtisodiy faollikni kuchaytirib, markaz va hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytiradi. Shu sababli, ko'plab iqtisodchilar kichik tadbirkorlikni iqtisodiyotning "tayanch ustuni" sifatida baholaydilar.

O'zbekiston iqtisodiyoti misolida ham so'nggi yillarda kichik biznes ulushi izchil o'sib bormoqda. Bu holat ilmiy adabiyotlarda ham o'z aksini topgan. Masalan, Bustonova o'z tadqiqotida O'zbekistonda kichik tadbirkorlikning YalMdagi ulushi 2020-yildagi 57,5 foizdan 2024-yilda 54,3 foizgacha nisbatan pasayganini, biroq umuman olganda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli sezilarli darajada ortib borayotganini ta'kidlagan. Shu bilan birga, hududlar kesimida kichik biznes ulushi turlicha dinamikani namoyon etmoqda.

Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining yalpi hududiy mahsulotdagi (YaHM) hissasi 2020-yilda 62,3 foizdan 2024-yilda 65,8 foizgacha oshgan. Bu holat hududda kichik biznes faoliyatining yanada jonlanib borayotganini ko'rsatadi. Ayrim boshqa hududlarda esa nisbiy o'zgarishlar kuzatilmoqda: masalan, Jizzax viloyatida kichik biznes ulushi 2020-yilda 84,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 74,4 foizni tashkil etdi [4]. Bunday dinamik o'zgarishlar, bir tomondan, hududiy iqtisodiyotlarning o'ziga xos ishlab chiqarish tuzilmasi, yirik sanoat korxonalari ulushi va yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi bilan, ikkinchi tomondan esa, kichik tadbirkorlikning o'sish sur'atlaridagi farqlar bilan izohlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish dinamikasini o'rganish maqsadida statistik tahlil usuli qo'llanildi. Bunda 2017–2025-yillar davri bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar bazasi tahlilning asosiy manbai sifatida qabul qilindi.

Asosiy axborot manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha choraklik va yillik hisobotlari, shuningdek, ochiq ma'lumotlar portalida e'lon qilingan ko'rsatkichlar jamlanmasidan foydalanildi. Tadqiqot doirasida kichik biznesning sanoat ishlab chiqarishi, qurilish ishlari hajmi, band bo'lgan aholi soni, tashqi savdo (eksport–import) hajmlari hamda umumiy iqtisodiyotdagi ulushi kabi asosiy ko'rsatkichlar o'rganildi.

Ma'lumotlar trend tahlili va taqqoslash usullari yordamida qayta ishlanib, yillar kesimidagi o'sish sur'atlari hamda o'zgarish tendensiyalari aniqlangan. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBYu) ko'rsatkichlarining umumiy iqtisodiyotdagi ulushini tahlil qilish orqali strukturaviy o'zgarishlar baholandi.

Tadqiqot metodologiyasi kichik biznes rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda mavjud statistik ma'lumotlarni izchil tahlil qilishga yo'naltirilgan. Olingan natijalar asosida kichik tadbirkorlikning iqtisodiy jarayonlardagi o'rnini mustahkamlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Metodologik jihatdan, tadqiqotda foydalanilgan 2025-yil ma'lumotlari yanvar–sentyabr holatiga tegishli bo'lib, ular yil yakuni bo'yicha yakuniy natijalar e'lon qilingach yanada to'liq tahlil imkoniyatini yaratadi. Ayrim ko'rsatkichlar dastlabki ma'lumotlar sifatida baholangan bo'lsa-da, ular tadqiqotning umumiy ilmiy ishonchligiga ta'sir etmaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2017-yildan 2023-yilgacha Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik biznes ko'rsatkichlari izchil o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Ushbu davr mobaynida KBYu subyektlarining sanoat va qurilish hajmlari bir necha barobarga oshgan, bandlik ko'rsatkichi barqaror yuqori darajada saqlanib, pandemiya yillaridagi qisqa muddatli pasayishdan so'ng tiklangan. Tashqi savdo faoliyatida esa eksport hajmi ortib, importga qaramlik nisbatan qisqargan (1-jadval).

1-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari hajmi [5]

Yillar	Sanoat (mlrd so'm)	Qurilish (mlrd so'm)	Bandlik (ming kishi)	Eksport (mln AQSH doll.)	Import (mln AQSH doll.)
2017-yil	1 365,4	1 083,1	486,0	40,0	76,0
2018-yil	2 219,3	1 903,0	532,8	46,8	172,8



2019-yil	2 517,5	2 943,5	532,9	88,4	190,1
2020-yil	3 382,1	3 495,1	524,8	78,8	125,3
2021-yil	3 721,8	4 168,9	521,6	92,4	140,0
2022-yil	3 744,6	4 765,3	528,9	68,9	109,8
2023-yil	5 314,6	6 681,3	548,0	93,6	117,9
2024-yil	9 218,0	7 353,1	-	144,7	183,8
2025-yil (yanvar-sentyabr)*	8 229,4	6 303,8	-	129,5	147,2

* Dastlabki ma'lumotlar

Quyidagi jadval Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning 2017–2025-yillardagi (jumladan, 2025-yil yanvar–sentyabr holatiga) asosiy ko'rsatkichlar dinamikasini aks ettiradi. Ma'lumotlar sanoat va qurilish hajmlari (mlrd so'm), bandlik (ming kishi), shuningdek eksport va import (mln AQSH doll.) ko'rsatkichlari bo'yicha jamlangan.

Umuman olganda, 2017–2023-yillar davomida barcha real sektor ko'rsatkichlari barqaror o'sish trayektoriyasida bo'lgan. Sanoat hajmi qariyb to'rt baravar, qurilish esa olti baravardan ortiq kengaygan. Tashqi savdo faoliyatida import hajmi butun davr davomida eksportdan yuqori bo'lib qolgan bo'lsa-da, eksportning ijobiy sur'atlarda kengayishi natijasida savdo tafovuti ayrim yillarda toraygan. 2021-yilda bandlik ko'rsatkichi eng yuqori cho'qqiga chiqqan, 2022-yilda esa qisqa muddatli pasayishdan so'ng 2023-yilda yana o'sish qayd etilgan. 2024-yil natijalari yuqori bazani saqlab qolgan, 2025-yil (9 oy) ma'lumotlarida esa mavsumiylik va yil yakunining to'liq emasligi sababli nisbatan pastroq darajalar qayd etilgan, bu holat yil yakunida yanada to'liq tahlil imkonini yaratadi.

2017–2025-yillar (shu jumladan, 2025-yil yanvar–sentyabr) oralig'ida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ko'rsatkichlari sanoat, qurilish, bandlik hamda tashqi savdo yo'nalishlarida izchil o'sish sur'atlarini namoyon etdi. Sanoat hajmi 2017-yildagi 1,36 trln so'mdan 2023-yilda 5,31 trln so'mga yetib, ishlab chiqarish zanjirlariga KBYu subyektlarining chuqur integratsiyasi va mahsulot portfelining diversifikatsiyasi jarayonini aks ettirdi. Qurilish sohasi bundan ham tezroq o'sib, 2019-yildan boshlab sanoatni muntazam ortda qoldirdi (2017-yilda 1,08 trln so'm, 2023-yilda 6,68 trln so'm). Bu holat infratuzilma loyihalarining kengayishi, uy-joy bozorida faollik va xususiy kapital oqimlarining kuchayishi bilan izohlanadi.

Bandlik ko'rsatkichi 2017-yildagi 486 ming kishidan 2021-yilda 551 ming kishigacha oshgan, 2022-yilda esa qisqa muddatli korreksiya (528 ming) kuzatilgan. Shu bilan birga, 2023-yilda 548 ming kishilik bandlik darajasi qayta tiklanib, bu holat pandemiyadan keyingi mehnat bozorining barqarorlashganini va kichik biznesning ish o'rinlari yaratishdagi rolini mustahkamlaganini ko'rsatadi.

Eksport hajmi 2017-yildagi 40 mln AQSH dollardan 2019-yilda 88 mln dollargacha tez sur'atlarda kengaygan, 2020-yilda global iqtisodiy sharoitlar ta'sirida qisqa muddatli pasayish kuzatilgan. Biroq 2021–2024-yillar oralig'ida eksport hajmi yana o'sib, hududning tashqi bozorga yo'naltirilgan mahsulotlari turini kengaytirganini tasdiqlaydi. Import hajmi esa butun davrda eksportdan yuqori bo'lib qolgan (masalan, 2017-yilda ≈76 mln, 2023-yilda ≈117 mln AQSH doll.), ammo ayrim yillarda uning o'sish sur'atlari sekinlashgan, bu esa asbob-uskunalar va xomashyo importining barqarorlashuviga ishora qiladi.

Mazkur dinamik o'zgarishlar strukturaviy siljishlar (pudrat va tugallovchi ishlarda KBYu ulushining ortishi), savdo balansidagi import ustunligini kamaytirish zarurati (mahalliyashtirish va eksport diversifikatsiyasi jarayonlarini jadallashtirish orqali), hamda iqtisodiy sikllilik va bazaviy effektlar (2020-yildagi qisqa pasayish va 2021–2023-yillardagi "bounce-back" jarayoni) bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, 2024–2025-yillar bo'yicha bandlik ma'lumotlarining to'liq e'lon qilinmaganligi yakuniy bahoni biroz cheklasa-da, yil yakunlari va to'liq statistik to'plamlar bozor kon'yunkturasi va amalga oshirilayotgan siyosiy choralarning samaradorligini yanada aniqroq baholash imkonini yaratadi (2-jadval).



2-jadval. Qoraqalpogʻiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi [5] (umumiy hajmga nisbatan, foizda)

Yil	YaHM	Sanoat	Qurilish	Bandlik
2017-yil	55,7	20,2	77,4	75,1
2018-yil	54,9	20,3	87,2	75,6
2019-yil	54,7	19,8	88,8	74,9
2020-yil	56,2	24,7	90,1	74,2
2021-yil	56,3	22,4	87,4	74,2
2022-yil	55,8	21,0	90,0	74,1
2023-yil	64,6	29,9	89,6	74,5
2024-yil	65,8	37,5	86,0	75,1
2025-yil (yanvar-sentyabr)*	64,1	40,6	86,3	-

* Dastlabki maʼlumotlar

Quyidagi jadval Qoraqalpogʻiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning (KBYu) umumiy iqtisodiy hajmga nisbatan ulushini 2017–2025-yillar (jumladan, 2025-yil yanvar–sentyabr, dastlabki maʼlumotlar) kesimida aks ettiradi. Koʻrsatkichlar YaHM (yalpi hududiy mahsulot), sanoat, qurilish va bandlik boʻyicha foizlarda berilgan.

2017–2025-yillar davomida KBYu ulushi YaHMda izchil kengayib, 2017-yildagi 55 foiz atrofidan 2024-yilda 65 foizdan yuqori darajagacha koʻtarilgan. 2025-yil 9 oylik natijalari biroz pastroq boʻlsa-da, bu holat yil yakunining toʻliq emasligi va mavsumiylik omillari bilan izohlanadi.

Sanoat tarmogʻida KBYu ulushi bosqichma-bosqich oʻsib, 2017-yildagi pastroq koʻrsatkichlardan 2024–2025-yillarda 40 foizdan yuqori diapazonga chiqdi. Bu jarayon kichik biznes subyektlarining qayta ishlash, yigʻuv-agregat va subpudrat zanjirlariga chuqur integratsiyalashayotganini hamda ularning sanoat ishlab chiqarishidagi faol ishtirokini kuchaytirayotganini anglatadi.

Qurilish sohasida KBYu ulushi butun davr davomida eng yuqori darajada boʻlib, koʻplab yillarda 85–90 foiz oraligʻida saqlanib kelmoqda. Bu esa infratuzilma loyihalar va uy-joy bozorida xususiy pudratchilar hamda kichik qurilish firmalarining yetakchi rolini tasdiqlaydi.

Bandlik tarmogʻida KBYu ulushi 74–76 foiz koridorida barqaror saqlanib, bu holat hudud mehnat bozorida har toʻrtta ish oʻrnining kamida uchasi KBYu sektoriga toʻgʻri kelayotganini bildiradi. 2024-yil maʼlumotlari bu barqaror tendensiyanı tasdiqlagan boʻlsa, 2025-yil uchun bandlik boʻyicha rasmiy statistik koʻrsatkichlar hali toʻliq eʼlon qilinmagan.

Mazkur struktura bir nechta muhim xulosalarnı ilgari suradi:

Birinchidan, ishlab chiqarish va xizmatlar sohalarida mehnat unumdorligini oshirish imkoniyati yuqori, chunki YaHM va sanoatdagi ulushlarning oʻsish surʼati bandlik ulushiga nisbatan tezroq kechmoqda.

Ikkinchidan, qurilish tarmogʻidagi juda yuqori ulush xususiy sektorning iqtisodiy faolligi va kapital aylanishini kuchaytirganini koʻrsatadi. Shu bilan birga, bu tarmoqda foiz stavkalari va koʻchmas mulk siyosatiga nisbatan sezgirlik yuqori boʻlgani sababli, moliyaviy muvozanatni saqlash mexanizmlarini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, sanoatdagi kengayish jarayoni mahallilashtirish, klasterlash va texnologik modernizatsiya dasturlarining multiplikativ taʼsiri ortib borayotganini koʻrsatadi.

Toʻrtinchidan, 2025-yil (yanvar–sentyabr) koʻrsatkichlari dastlabki boʻlgani sabab, yil yakunidagi toʻliq statistik maʼlumotlar KBYu sektorining rivojlanish surʼatlarini yanada aniqroq baholash imkonini beradi.

Umuman olganda, jadval KBYuning hudud iqtisodiyotidagi “ogʻirligi” muntazam ortib borayotganini, ayniqsa qurilish va sanoat tarmoqlarida strukturaviy oʻzgarishlar markazida turganini va bandlik sohasida barqaror tayanch sektor vazifasini bajarayotganini yaqqol namoyon etadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlil natijalariga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik so'nggi yillarda iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlovchi muhim drayver sifatida shakllandi. Kichik tadbirkorlik subyektlari sanoat ishlab chiqarishi va qurilish hajmlarini sezilarli kengaytirib, minglab yangi ish o'rinlarini yaratdi hamda hududning eksport salohiyatini oshirdi. KBYu ulushi hudud yalpi hududiy mahsulotida (YaHM) izchil ortib borayotgani uning iqtisodiy jarayonlardagi strategik ahamiyatini ko'rsatadi. Tahlillar shuni ham anglatadiki, kichik biznes faoliyatini yanada rivojlantirish uchun resurslarni samarali yo'naltirish, mehnat unumdorligini oshirish va tashqi savdo tarkibini muvozanatlashtirish zarur. Shu munosabat bilan quyidagi strategik takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, tashqi savdoni diversifikatsiya qilish zarur. Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirish va importga nisbatan mustaqilligini kuchaytirish maqsadida mahalliyashtirish hamda eksport diversifikatsiyasi siyosatini jadallashtirish lozim. Buning uchun import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi kichik korxonalarni qo'llab-quvvatlash, xorijiy bozorlar talabiga mos yangi mahsulot turlarini o'zlashtirishga ko'maklashish, eksportchilar uchun logistika, sertifikatlashtirish, sug'urta va kredit mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu chora-tadbirlar kichik biznesning tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda hudud eksport salohiyatini mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, kichik sanoatni klasterlash va innovatsion rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Sanoat tarmog'ida KBYu ulushining o'sishi kooperatsiya, innovatsiya va texnologik modernizatsiya siyosatini davom ettirish zarurligini ko'rsatadi. Shu maqsadda kichik ishlab chiqaruvchilarni yirik korxonalar bilan kooperatsiyaga jalb etish, texnologiya transferini moliyaviy rag'batlantirish, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armalari, startup-akseleratorlar va konsultatsiya markazlarini kengaytirish talab etiladi. Bu chora-tadbirlar mehnat unumdorligini oshirish, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar yaratish va raqobatbardoshlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, qurilish sektorida barqarorlikni ta'minlash muhimdir. Qurilish tarmog'ida kichik biznesning yuqori ulushini inobatga olgan holda, ushbu sektorni moliyaviy xatarlar va kon'yunktura tebranishlaridan himoyalash choralari ko'rilishi zarur. Buning uchun qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi mahalliy kichik korxonalarni rivojlantirish, ipoteka kreditlash tizimini soddalashtirish va moliyaviy resurslarga kirishni yengillashtirish, davlat buyurtmalarida kichik pudratchilar ishtirokini kafolatlash, shuningdek barqaror loyihalar portfelini shakllantirish lozim. Natijada, qurilish sohasida talab barqarorligi saqlanadi, kichik qurilish firmalari esa uzluksiz bandlik va moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi.

Mehnat bozori va kadrlar salohiyatini rivojlantirish. Kichik biznesda bandlikning yuqori ulushini sifat jihatdan mustahkamlash maqsadida kadrlar malakasini oshirish va mehnat unumdorligini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Hududda kasb-hunar ta'limi tizimini kichik tadbirkorlik ehtiyojlariga moslashtirish, shuningdek, kichik korxonalar uchun amaliy treninglar va konsultativ xizmatlar (biznes yuritish, marketing, raqamli ko'nikmalar bo'yicha)ni yo'lga qo'yish tavsiya etiladi. Natijada kichik biznesda faoliyat yuritayotgan xodimlarning malakasi oshadi, ish samaradorligi ortadi va innovatsion faoliyat faollashadi.

Institutsional qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish. Kichik tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining izchilligini saqlab qolish muhim ahamiyatga ega. Soliq imtiyozlari, kredit va lizing bo'yicha yengilliklar, yer ajratish va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish kabi chora-tadbirlarni muntazam takomillashtirib borish lozim. Xususan, Qoraqalpog'istonda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini faoliyatini kengaytirish, ularga qo'shimcha preferensiyalar berish hududga yangi investitsiyalar jalb etish va kichik biznesning infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadbirkorlar bilan ochiq muloqot mexanizmini (xususan, Prezidentning biznes vakillari bilan ochiq uchrashuvlari amaliyotini) davom ettirish, joylardagi muammo va takliflarni bevosita tinglash hamda ularni tezkor hal etish institutsional barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish va monitoringni takomillashtirish. Kichik biznes rivojlanishini samarali boshqarish va tahlil etish uchun statistik ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchligini ta'minlash zarur. 2024–2025-yillar uchun ayrim ko'rsatkichlar (masalan, bandlik) bo'yicha ma'lumotlarning to'liq e'lon qilinmaganligi tahlil imkoniyatlarini cheklagan bo'lsa-da, kelgusida bunday bo'shliqlarning oldini olish maqsadida real vaqt rejimidagi monitoring tizimini joriy etish lozim. Shu bilan birga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) yechimlaridan foydalanish, statistik ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tizimlarda yig'ish va qayta ishlash kichik biznesning holatini tezkor kuzatish va samarali siyosiy qarorlar qabul qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy rivojlanishning tayanch ustuni sifatida shakllanmoqda. Uni yanada rag'batlantirish, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni oldindan boshqarish orqali hududda inklyuziv va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin. Yuqorida keltirilgan tavsiyalarni amalga oshirish kichik tadbirkorlikning hudud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasini yanada oshiradi hamda uzoq muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasining iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Julia Devos, Zishu Chen. Why We Shouldn't Overlook the Impact of SMEs on Local and Global Economies. World Economic Forum, 29–August–2022. URL: <https://shorturl.at/ottRg>.
2. CERR Public Relations Sector. Infographic: Entrepreneurship Development in Uzbekistan in 2024. Review.uz, 19–August–2025. URL: <https://shorturl.at/QM8TO>.
3. Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit (GIZ) GmbH. Building a Sustainable Future for Karakalpakstan. Registered offices Bonn and Eschborn, Germany, September–2024. URL: <https://shorturl.at/POUz6>.
4. Bustonova N.A. The Share of Small Business in Uzbekistan's GDP and Its Impact on Economic Stability. Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research, 3(10), 2025, pp. 44–47. URL: <https://webofjournals.com/index.php/9/article/view/5261>.
5. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Statistics Department of the Republic of Karakalpakstan. Official site: www.grstat.uz.
6. Сарсенбаев Б., Алланиязова Н. (2024). Формирование прогнозных значений доходов бюджета Узбекистана. Экономическое развитие и анализ, 2(8), 399–404.
7. Kengesov Diyorbek, et al. Main Directions of Increasing the Investment Attractiveness of the Economy of the Republic of Uzbekistan. Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot, 3(2), 2025.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
